O‘SMIRLAR GURUHIDA O‘ZINI O‘ZI PSIXOLOGIK MUHOFAZA QILISH JARAYONINI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Sayfullayeva Aziza Hayitovna - ZARMED Universiteti Boshlangich ta’lim, pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: azizasayfulloyeva1983@gmail.com

Psixologik muhofaza qilish muammosi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Zero, insonning har jihatdan ijtimoiy taraqqiyoti, shaxs sifatidagi faolligi va o‘zini o‘zi rivojlantira borishi ko‘p jihatdan ushbu jarayonga bog‘liqdir.

Alohida ta’kidlash joizki, shaxslar o‘zlarining ma’lum doiradagi psixologik imkoniyatlari, yutuqlari, kamchiliklari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lsalar, bu ularning hayotda uchraydigan har qanday muvaffaqiyatsizliklarni osonlik bilan bartaraf etishga, o‘z imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalana olishga, bir so‘z bilan aytganda, o‘zlari haqida yanada teran, ijobiy va o‘ziga xos ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan tasavvurlarning shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. O‘smirlik davri esa xuddi shunday imkoniyatlar ko‘lamini yanada kengaytirish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda yoshlar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari alohida qadriyat sifatida tobora yuksaklarga ko‘tarilmoqda. Umuman, yoshlarni psixologik jihatdan to‘g‘ri tarbiyalash muammosi ham ilmiy psixologiyaning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘p bor munozaralar manbai bo‘lgan. Bu haqda qadimgi va dastlabki psixologik tasavvurlar makoni bo‘lmish Hindiston, Xitoy, Misr, Vavilon, O‘rta Osiyo, Gresiya, shuningdek, jon (ruh) haqidagi I kitobning muallifi Aristotel va temperament (mijoz) ta’limotining asoschilari Galen, Gippokrat va Ibn Sinolardan tortib, to hozirga qadar psixologlar o‘z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmokdalar.

Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko‘rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo har bir faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsdagi o‘ziga xos psixologik salohiyatning ne chog‘lik to‘la-to‘kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi. Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma’naviy taraqqiyot yo‘liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu boisdan bugun barcha davlatlarda yoshlarning ma’naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo‘llarini izlashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan shaxs va uning ijtimoiy faolligi o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga qaratilgan psixologik muhofaza

tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qolaversa, mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ham o‘sib kelayotgan yosh, bunyodkor avlodni nafaqat bugungi, balki ertangi taraqqiyot talablariga to‘liq javob bera oluvchi shaxs sifatida shakllantirish uchun tegishli ijtimoiy psixologik tadqiqotlar olib borilishiga yanada jiddiyroq e’tibor qaratishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda o‘ziga xos xulq-atvori, «Men» ligi namoyon etilishida shaxslararo munosabat, identifikatsiya, refleksivlik jarayonlarining yaqqol ta’siri ko‘rinib turgan har bir o‘smirlar guruhida me’yoridan ortiq bezovtalik, hissiy zo‘riqish, ruhiy tushkunlik va asabiylik holatlarini o‘z vaqtida payqash va bartaraf etish uchun tegishli chora-tadbirlarni qo‘llamay turib, ta’lim-tarbiya samaradorligiga erishib bo‘lmaydi. Ta’lim-tarbiya samaradorligi zaiflashgan joyda esa shaxs yetarli darajada rivojlanmaydi.

Shu boisdan, o‘smirlik davri o‘zining o‘ta murakkabligi shaxs taraqqiyoti uchun “o‘tish” yoki “tub burilish” davri ekanligi bilan unga nisbatan jiddiy yondashuv muqarrarligini taqozo etadi.

Bugungi kunda talaygina o‘smirlar o‘quv faoliyatida juda ko‘plab muvaffaqiyatsizliklarga uchrayotganliklarini kuyunib gapirmoqdalar, shuningdek, kattalar tomonidan ularga bildirilayotgan muomala jarayonidan qoniqmay kelayotganliklari va buning oqibatida qattiq asabiylashgan holda faoliyat yuritayotganliklarini qayta-qayta ta’kidlaydilar. Bularning barchasi, o‘smirlar guruhi uchun xarakterli bo‘lgan o‘zini o‘zi psixologik muhofaza qilish doirasidagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko‘pchiligi psixologik muhofaza muammolarining ma’lum darajadagi qirralarini o‘z izlanishlari orqali o‘rganganlar. Jumladan, xorij psixologlaridan Z.Freyd , A.Freyd, K.Xol, G.Lindsey, D.Mayers, A.Maslou, E.Krechmer, G.Ollport, K.Tomas, rus olimlari tomonidan G.M.Andreeva, V.S.Merlin, V.G.Kamenskaya, V.V.Stolin, V.G.Kamenskayaning “Psixologik himoya va nizolar tizimidagi motivatsiyalar ” asari psixologik himoya mexanizmlari ma’lum darajadagi nizoli vaziyatlar talqiniga bag‘ishlangan. Jumladan, muallif xilma-xil nizoli vaziyatlar ta’sirida insondagi turlicha axloqiy qarashlarning mavjudligini ma’lum himoya vositalari “Ego-himoya” mexanizmlari orqali asoslab beradi. O‘zbek olimlaridan o‘smirlardagi psixologik muhofaza imkoniyatlarini ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirish doirasida V.M. Karimova va uning shogirdlari, o‘smirlardagi aqliy taraqqiyot dinamikasi doirasida E.G‘.G‘oziev va uning shogirdlari, o‘smir avtonomiyasini tadqiq qilish doirasida G‘.B.Shoumarov va uning shogirdlari, milliy o‘zlikni anglash doirasida R.I.Sunnatova va N.S.Safoev hamda ularning shogirdlari

tomonidan muayyan darajadagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Shuningdek, tadqiqotchi A.H.Ubaydullaev tomonidan yoshlardagi xavf-xatar hissi bilan bog'liq nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi.

Shaxsning o'zini o'zi idora qilish motivatsiyasi doirasida A.A.Fayzullaev hamda tarbiyasi qiyin o'smirlarga individual yondashuv doirasida esa G.Q.To'laganovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham o'smir shaxsidagi psixologik muhofaza jarayonlarining u yoki bu jihatlari haqida tegishli ilmiy mulohazalar yuritish imkonini beradi.

Shunday bo'lsada, yuqoridagi tadqiqotlarning birortasida ham o'smirlardagi psixologik muhofaza jarayoni va uning o'ziga xos ijtimoiy psixologik jihatlari alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Bularning barchasi, bizningcha, bugungi kunda har bir o'smir uchun xarakterli bo'lgan o'zini o'zi psixologik muhofaza qilish doirasidagi o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlarni ilmiy- amaliy asosda yanada chuqurroq o'rganish muqarrarligini taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guilford G. Isolation and prescription of occupational stereotypes of occupy// Psychologist. – 1967, vol. 41, №l, – pp.57-67.

2. Thorndike R.L. Factor analysis of social and abstract intelligence // Journal of Educational Psychology. – England: 1936, № 4. – pp. 124-128.

3. Thurstone L.L. Primary mental abilities /Psychometric monographs. – Shicago. University of Chicago Press, 1938, – 278 r.

4. Allport G.W. Personality: A Psychological Interpretation. – NY.: Holt, 1937, – 657 r.